

SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

3
2025

| | | | | | |
|--|--|--------------------------|---|---------------------|--|
| <p style="text-align: center;"><i>Ilmiy-ustubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. Ta'sischi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1992-yildan chiqa boshlagan Jumal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)</i></p> <p>Bosh muharrir: G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)</p> <p>Tahrir hay'ati: D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari) X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib) A. MANNONOV (prof., f.f.d.) Q. SODIQOV (prof., f.f.d.) R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.) SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.) Q. OMONOV (prof., f.f.d.) U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.) D. MUHIDDINOVA (f.f.d.) X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD) B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.) A. XODJAYEV (prof., f.f.d.) M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.) X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.) D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD) SH. YOYQOCHEV (prof., s.f.d.) N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.) A. VAHOBOV (prof., i.f.d.) R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.) I. MAVLANOV (prof., i.f.d.) R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.) E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.) A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.) G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.) ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.) LIDJIN (Koreya Respublikasining Xanku chet tillar univ. prof.) V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.) A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.) A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi) G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.) A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori) S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD) H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)</p> | <div style="text-align: right;"> <h1 style="margin: 0;">SHARQ MASH'ALI</h1> <p style="margin: 0;">ISSN 2010-9709</p> </div> <hr/> <p style="text-align: center;">MUNDARIJA № 3, 2025-yil</p> <table style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 30%; vertical-align: top; padding: 5px;">Adabiyotshunoslik</td> <td style="padding: 5px;"> <p>Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3</p> <p>Ахмедова Ш. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10</p> <p>Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish 15</p> <p>Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi 23</p> <p>Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 30</p> <p>Ibragimov B. Elbek ijodini o'rganishdagi noxolis yondashuvlar 41</p> <p>Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari 48</p> </td> </tr> <tr> <td style="width: 30%; vertical-align: top; padding: 5px;">Tilshunoslik</td> <td style="padding: 5px;"> <p>Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar 58</p> <p>Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili 67</p> <p>Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi 80</p> <p>Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German 88</p> <p>Giyazova B. Ma'budalar - sarasvati, lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarning sinonimik (jihattan) tahlili 91</p> <p>Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi 107</p> </td> </tr> </table> | Adabiyotshunoslik | <p>Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3</p> <p>Ахмедова Ш. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10</p> <p>Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish 15</p> <p>Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi 23</p> <p>Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 30</p> <p>Ibragimov B. Elbek ijodini o'rganishdagi noxolis yondashuvlar 41</p> <p>Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari 48</p> | Tilshunoslik | <p>Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar 58</p> <p>Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili 67</p> <p>Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi 80</p> <p>Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German 88</p> <p>Giyazova B. Ma'budalar - sarasvati, lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarning sinonimik (jihattan) tahlili 91</p> <p>Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi 107</p> |
| Adabiyotshunoslik | <p>Ходжаева Р. Коранические образы и мотивы в макамах великого мыслителя из Хорезма Махмуда аз-Замахшари 3</p> <p>Ахмедова Ш. Образ песчаного корабля пустыни - верблюда в рассказах Сулеймана Аш-Шати 10</p> <p>Gafurova X. Yaponiyada zamonaviy fanda uta-monogatari adabiy janrini o'rganish 15</p> <p>Qoraboyev S. Pashtu adabiyotida tarixiy roman va uning janri masalasi 23</p> <p>Qosimova G. Yomixon janri rivojida Ueda Akinari merosi 30</p> <p>Ibragimov B. Elbek ijodini o'rganishdagi noxolis yondashuvlar 41</p> <p>Jabborov Sh. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "tabaqa" va uning o'ziga xos xususiyatlari 48</p> | | | | |
| Tilshunoslik | <p>Abduvaliyeva O'. Pashtu tilidagi kopulyativ frazeologik birliklar 58</p> <p>Muxammadjonov A. Abu Hilol al-Askariyning الفروق اللغوية "Al-Furūq al-lughawiyyah" asarining struktur va semantik tahlili 67</p> <p>Saidov U. Konsept: tushunchasi, tarixi va masalaning diaxronik qo'yilishi 80</p> <p>Baylarova L. Methodology based on the cultural model of linguistic and cultural texts in teaching German 88</p> <p>Giyazova B. Ma'budalar - sarasvati, lakshmi va durga bilan bog'liq atamalarning sinonimik (jihattan) tahlili 91</p> <p>Rasulova K. "Navoiy" romani turkcha tarjimalarida frazeologizmlarning berilishi 107</p> | | | | |

| | | |
|---|------------------------------|---|
| <p style="text-align: center;">Nashrga tayyorlovchilar: J. ISMOILOV, A. ZIYODOV L. HAMDAMZODA, H. SULAYMONOVA</p> <p style="text-align: center;">Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.</p> <p style="text-align: center;">Jurnal original-maket asos'ida bosildi. Sharq mash'ali, 2025 yil 3-son. e-mail: nashriyot@tsuos.uz web-site: www.tsuos.uz Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;">Bosishga ruxsat etildi: 30.09.2025 Bichimi 84x108 ¹/₁₆ Shartli 11,5 b.t. 50 nusxada bosildi. Buyurtma № Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining kichik bosmaxonasi. Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.</p> | <p>Tarix</p> | <p>Madraimov A., Madraimov A. Tarixchi G'iyosiddin Xondamirning Boburshunoslikka qo'shgan katta hissasi 117</p> <p>Karimov N. "Navodir al-usul" asarida islom psixologiyasining yoritilishi 122</p> <p>Hasan N. Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rni haqida 130</p> <p>Mirzoraximov A. Kitobat va uning rivojlanish bosqichlari 138</p> <p>Abdullayev U. Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati 145</p> <p>Egamberdiyev A. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistondagi siyosiy jarayonlarning turkiston davriy matbuotida yoritilishi 152</p> |
| | <p>Tashqi siyosat</p> | <p>Sadibaqosev H. Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik borasida AQSH va Xitoy bilan hamkorligi 161</p> <p>Rizayev A. Saudiya Arabistonining xalqaro- siyosiy identikligi 169</p> <p>Аллахвердиева Л. Развитие магистерского образования в Азербайджане в процессе интеграции в европейское высшее образовательное пространство 176</p> <p>Qalandarov O'. Afg'on migrantlarining eron jamiyatiga infiltratsiyasi 184</p> |

AMIR TEMURNING YEVROPA DAVLATLARIGA NISBATAN TASHQI SIYOSATI

ULUG'BEK ABDULLAYEV

Dotsent, TDSHU

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati, uning diplomatik strategiyasi hamda Yaqin va O'rta Sharqdagi siyosiy jarayonlarga munosabati tahlil etiladi. XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda yuz bergan siyosiy parokandalik, iqtisodiy tanazzul va mo'g'ul hukmronligining zaiflashuvi Sohibqironning xalqaro siyosat maydoniga faol kirib kelishiga imkon yaratgani yoritilgan. Maqolada Amir Temurning Buyuk Ipak yo'lini tiklash, adolatli boshqaruvni qaror toptirish va mintaqada tinchlik o'rnatish yo'lidagi diplomatik va harbiy choralarini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Sharifxon Bidlisiy kabi tarixchilarning asarlari asosida Temurning g'arbiy yurishlari, Yevropa davlatlari bilan bilvosita aloqalari va xalqaro vaziyatdan o'z manfaatlarini yo'lida oqilona foydalanish siyosati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot Sohibqironning Yevropa va Sharq o'rtasidagi siyosiy muvozanatni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:** Amir Temur, tashqi siyosat, diplomatiya, Yevropa, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Zafarnoma, Buyuk Ipak yo'li, tarixiy manbalar.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается внешняя политика Амира Темура по отношению к европейским государствам, его дипломатическая стратегия и участие в политических процессах Ближнего и Среднего Востока. Показано, что политическая раздробленность, экономический упадок и ослабление монгольского владычества в конце XIV – начале XV веков создали условия для активного выхода Сахибкيرانа на международную арену. В статье анализируются меры Темура по восстановлению Великого шелкового пути, утверждению справедливого управления и обеспечению стабильности в регионе. На основе трудов Низамаддина Шамия, Шараф ад-Дина Йязди, Хафиза Абру и Шарифхана Бидлиси исследуется политика Темура в отношении западных стран, его косвенные контакты с Европой и умелое использование международной обстановки в интересах своего государства. Исследование раскрывает роль и значение Амира Темура в установлении политического баланса между Востоком и Западом.*

***Ключевые слова:** Амир Темура, внешняя политика, дипломатия, Европа, Ближний Восток, Малая Азия, Зафарнома, Великий шелковый путь, исторические источники.*

***Abstract.** This article examines the foreign policy of Amir Timur toward European states, his diplomatic strategy, and his involvement in the political processes of the Near and Middle East. It is demonstrated that political fragmentation, economic decline, and the weakening of Mongol dominance in the late 14th and early 15th centuries created favorable conditions for the Sahibqiran's active entry onto the international stage. The study analyzes Timur's efforts to restore the Great Silk Road, establish just governance, and ensure regional stability. Drawing upon the works of Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Yazdi, Hafiz Abru, and Sharif Khan Bidlisi, the article explores Timur's policy toward Western countries, his indirect contacts with Europe, and his skillful use of the international situation to serve the interests of his state. The research*

reveals the role and significance of Amir Timur in establishing the political balance between East and West.

Keywords: *Amir Timur, foreign policy, diplomacy, Europe, Near East, Asia Minor, Zafarnama, Great Silk Road, historical sources.*

Amir Temur siyosat maydoniga chiqqandan keyin Movarounnahr sarhadlarini mustahkamlab, kuchli markazlashgan davlat qurishga kirishgan paytda Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda muhim siyosiy-tarixiy o'zgarishlar yuz bermoqda edi. XIV asrning oxirgi choragida bu hududlarda mo'g'ullar tomonidan barpo etilgan Hulagular davlati parchalanib, bir qancha kichik xonliklar va mahalliy sulolalar yuzaga kelgandi. Aholi o'rtasida mo'g'ullar hukmronligiga qarshi kurash mayllari paydo bo'lgan va u tobora kuchayib bermoqda edi. Sharqshunos I.P. Petrushevskiyning qayd etishicha, Hulagular davlatining parchalanishi butun Eronda mo'g'ul zulmi butunlay tugatildi, degan ma'noni bildirmaydi, chunki bir qancha viloyatlarda hukmronlik hamon turk-mo'g'ul harbiy-ko'chmanchi zodagonlari qo'lida saqlanib qolgan va ular Chingizxonning buyuk Yasa qonunlariga qattiq rioya etgan holda feodal-ekspluatatorlik boshqaruv usullarini davom ettirmoqda edi¹.

Bu davr tarixini o'rganishda ham Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma"lari, Muiniddin Natanziyning "Muntaxab-ut tavorixi Muiniy"², Hofizi Abruning "Zubdat ut-tavorix" ("Solnomalar qaymog'i") Fasix Havofiy va Sharifxon Bidlisiylarning asarlari katta qimmatga ega. Shohruxning saroy tarixchisi bo'lgan Hofizi Abru (Shahobiddin Abdulloh bin Lutfulloh bin Abdurashid al-Havofiy)ning yuqorida aytilgan noyob asari haqida V.V. Bartold "Хафиз-и Абру и его сочинения" maqolasida batafsil ma'lumot beradi³.

Sharifxon Bidlisiyning «Sharafnoma» asarida XIV asrda Yaqin Sharq va Eronda bo'lib o'tgan voqealar, mayda hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro urushlar manzarasi qisqa lavhalarda xolis tasvirlangan. «Sharafnoma» Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati va turli hukmdorlar bilan munosabatlarini o'rganishga ham ma'lum darajada yordam beradi.

Hukmdorlarning bunday shafqatsizligi va zolimligi tanazzulga uchragan Yaqin Sharq mamlakatlaridagi siyosiy-iqtisodiy ahvol qay darajada yomonlashganini ko'rsatib turibdi. Xalqni ezish, adolatsizlikni avj oldirish va o'zaro nizolarga berilib, mamlakat taqdirini o'ylamay qo'ygan zolim hukmdorlar uzoqqa bora olmasligi tarixdan ma'lum. XIV asr o'rtalarida – Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, Movarounnahrda markazlashgan, adolatli qonunlar bilan boshqariladigan davlat barpo etib, aholiga har qanday ziyon-zahmat yetkazishga chek qo'ygan bir paytda Yaqin Sharq mamlakatlari ana shu tarzda parchalanib, siyosiy-iqtisodiy inqiroz botqog'iga botib ketgan edi.

Tarix tajribasidan ma'lumki, har qanday kuchli, markazlashgan davlat kichik-kichik bo'lakchalarga ajralib, parchalanib ketsa, yagona boshqaruv zaiflashsa, qonunlar bajarilmasa va eng yomoni, aholi shafqatsiz zulm-zo'ravonlik ostida qolsa, bunday o'lkalarga tashqi tajovuzlar

¹ История Ирана с дрснейших времен до конца XVIII века. Изд. Ленинградского университета, 1958. – С. 211.

² Bu asarning uchta qo'lyozmasi mavjud bo'lib, ular Sankt-Peterburg, London va Parijda saqlanadi. I.P. Petrushevskiyning ta'kidlashicha, mazkur asar bizgacha yetib kelmagan turkiy manbalarga tayanib yozilgani jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. (Ko'rsatilgan asar. – S. 212). Yaqinda mazkur asarning sharqshunos G'ulom Karimov tomonidan fors tilidan o'zbek tiliga qilingan tarjimai "Sohibqiron hayotidan lavhalar" nomi bilan "Jahon adabiyoti" jurnalida (2006 yil, 3-4 –sonlari) e'lon etildi.

³ В. В. Бартольд. Сочинение. Т.VIII. – С. 74-97.

kuchayib ketadi. Ular kuchli davlatlar tomonidan osonlikcha ishg'ol etiladi. Qadimgi Gresiya va Rim imperiyalari, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Mo'g'ullar saltanati yoki keyingi O'rta Osiyodagi uch xonlik davri bunga yaxshi misol bo'la oladi. Mamlakatning parchalanib, mayda bo'lakchalarga bo'linib ketishi, kichik hukmdorlar o'rtasidagi tinimsiz adovat va o'zaro urushlar shubhasiz bunday o'lkalarni halokatga olib kelar edi. XIV asrda Yaqin Sharq va Eron ana shunday tanazzulga giriftor bo'lgandi.

Jahon savdo yo'llari, xususan Buyuk ipak yo'lini tiklashni maqsad qilgan Amir Temur Yaqin Sharqqa befarq qaray olmas edi. Bu hududlardagi tinimsiz o'zaro urushlar savdo karvonlari va xojilarni xaj ziyoratiga emin-erkin borib kelishiga monelik qilardi. Va eng muhimi iqtisodiy tanazzul kuchayib, fuqaro og'ir ahvolda qolgan edi. Kuchli davlatlar o'rtasida talash maydoniga aylangan bu hududlarni birlashtirish va adolat o'rnatish, aholining osoyishtaligi ta'minlash hayotiy zarurat edi. Bu ulkan vazifani bajarish kuchli siyosatchi va yetuk davlat arbobi bo'lgan Amir Temur zimmasiga tushdi.

Amir Temur Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo etib, unga Shimol va Sharqdan bo'ladigan xavf-xatarlarni ma'lum darajada bartaraf etganidan keyin o'z mamlakatining janubi va g'arbi – Yaqin va O'rta Sharq, Kichik Osiyo hududlari bilan shug'ullanishga kirishdi. Bu hududlar XIV asr o'rtalarida kichik-kichik davlatlarga bo'linib ketganligi, siyosiy jihatdan ham, iqtisodiy jihatdan ham parokandalik kuchayganligini yuqorida aytib o'tdik. "Kichik Osiyoda ham Saruaniylar, Oydiniylar, menteshoilar, Takaelilar, Karmiyonilar, Karamoniylar, Usmonlilar kabi bir qator katta-kichik sulolalar"¹ o'zaro urushlar girdobida edi. Shu yillarda Yevropa ham aynan shunday ahvolda edi. Italiya mayda davlatchalarga (Florensiya, Siyena, Piza, Milan, Genuya, Venesiya, Savoyya kabi) bo'linib ketgan, siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar kuchaygan edi. Fransiyada ham mayda mahalliy hokimlar qirolga deyarli bo'ysunmay qo'ygandi. Angliya va Fransiya orasida uzoq davom etgan kurash ("yuz yillik urush") har ikki mamlakatning sillasini quritgandi. Ispaniya bilan Angliya hamda Portugaliya o'rtasida ham keskin ziddiyatlar mavjud edi. Vizantiya imperiyasi esa Usmonli turklar zarbasi ostida halokatga yaqinlashib qolgandi. Bu murakkab ahvol Amir Temurning Yaqin Sharqda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishiga yo'l ochib berdi. U qo'shni mamlakatlarda yuz berayotgan siyosiy-iqtisodiy tangliklardan o'z vaqtida foydalana oldi.

Sohibqiron O'rta va Yaqin Sharq o'lkaloriga o'tlanar ekan, chingiziylardan bo'lgan Hulagu tomonidan zabt etilgan ulkan hududlarga da'vogar ekanini ochiq bayon etdi. Ma'lumki, buyuk xon Munkening farmoniga ko'ra, Hulagu Amudaryo janubidagi yerlarni qaytadan egallagan edi. U 1256-yilda Shimoliy Erondagi ismoiliylarni bo'ysundirgach, 1258-yilda Iroqda so'nggi abbosiy xalifa al-Musta'sim qo'shinlarini yengib, Bag'dodga kirib boradi. Suriya hududlarida urush qiladi, ammo 1260-yilda Misr mamluklaridan yengiladi. Shunga qaramay, u Eron, Iroq, Kavkaz va Kichik Osiyoni birlashtiruvchi ulkan saltanatni vujudga keltirgan edi. Hulagu mana shu hududlarda "elxon" (ya'ni "ulug' xonga itoat etuvchi") unvoni bilan hukm yuritadi. Bir asr hukm surgan Elxoniylar sulolasi o'rinda 1353-yildan keyin Jaloiiriylar, Muzaffariylar hamda Sarbardorlar davlati tashkil topadi². Amir Temur shu paytgacha asosan sharqiy Xurosonni (markazi Hirot) bo'ysundirishga intilgan edi. Uning g'arb yo'nalishidagi harakati va ma'lum ma'noda g'arbiy o'lkalarning siyosatiga tortilishi g'arbiy Xurosondagi Sarbadorlar (markazi Sabzavor) hukmdori Ali Muayyad Mozondaron amiri Vali bosqinidan yordam so'rab murojaat qilganidan so'ng

¹ Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001. – B. 209.

² Босворт К.Э. Мусулманские династии. – М.: Наука, 1971. – С. 200-201.

boshlangan. Bu voqea Davlatshoh Samarqandiyning “Shoirilar bo‘stoni” kitobida bayon qilingan. Lekin tarjimon B. Ahmedovning Temur Ali Muayyadni o‘ldirdi degan fikri uydirma. Ali Muayyad Temur dushmandlariga qarshi kurashda yaralanib vafot qilgani manbada aytilgan.¹

Amir Temur Eron hamda Yaqin Sharqqa otlar ekan, birinchi navbatda “Hulagu taxti”da osoyishtalik o‘rnatishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu siyosiy reja amalda Islom dinini himoya qilish, mazkur tarqoq mamlakatlardagi o‘zaro qirg‘inlar tufayli behuda qon to‘kishlarga chek qo‘yish, fuqaro osoyishtaligini ta‘minlash shiori ostida o‘tkaziladi.

Sohibqiron qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy hayotni, aholining kayfiyati, hukmdorlarning vaziyati, qo‘shinning ahvolini sinchkovlik bilan puxta o‘rgangan. U kuchli ayg‘oqchilar (razvedka) tizimiga ega edi. Bundan tashqari, amirlar, elchilar, savdogarlar turli maqsadlar bilan o‘zga ellarga borganda, o‘sha mamlakatlar haqida puxta ma‘lumotlar olib kelishgan. Masalan, muqaddas Haj safariga borgan amir Sayfuddin karvon yo‘lidagi barcha mamlakatlar vaziyati haqida mufassal ma‘lumotlar to‘plagan edi. U 1378-yilda safardan qaytgach, ayniqsa, Eron va Xurosonda elxoniyalar o‘rnida hukmdorlik qilayotgan mayda hokimlar mamlakatni izdan chiqarib yuborgani, yurt inqirozga yuz tutgani, mavjud siyosiy vaziyatda bu o‘lkalarni osonlik bilan qo‘lga kiritish mumkinligi haqida axborot bergani ma‘lum.

Sharafiddin Yazdiyning yozishicha, 1376-yilda amirzoda Jahongir vafot etgandan keyin amir Sayfiddin safarga otlanadi: “Va Sayfiddinbek bu jihatdin barcha ishdin ilikni yuvub, dunyo bilan hech e‘tiqodi qolmay, ijozat tilab, Ka‘bag‘a bordi». Uning safardan qaytishi ham “Zafarnoma”da qisqagina bayon qilingan: “Bu mahalda Hoji Sayfiddinbek Hijoz safaridin kaytib, hazrat Sohobqiron qoshida keldi va Eron mamlakatida bo‘lg‘on podshohlarning ahvollarini arzadosht qildi”².

Shu bilan birga Sohobqiron qo‘shni mamlakatlardagi aholining hukmdorlardan noroziligidan ham ustalik bilan foydalangan. Bu o‘rinda ham Islom, shariat qonunlarining homiysi sifatida ish tutgan.

Jumladan, “Temur tuzuklari”da Seiston safari haqida shunday yoziladi: “Seiston valiysi ... elchi orqali sovg‘a-salomlar yuborib, mendan yordam so‘radi: “Dushmanlarim menga zulm qilib, qo‘limdan yetti qal‘amni tortib oldilar. Agar mendan dushman qo‘lini qisqa qilsalar, askarlariga olti oylik oziq-ovqatni yetkazib berardim”³. Bunday takliflar, albatta, inobatga olingan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, Sohobqiron “Xorazm andishasidan tinchigach (ya‘ni o‘z mamlakatining shimoliy hududlarini mustahkamlab bo‘lgach – U.A.), Xuroson ahvolini tartibga solishni iroda qildi”⁴. Bu davrda yuqorida aytilganidek, Xuroson va Eron bir qancha mayda davlatlarga bo‘linib ketgan, iqtisodiy tanazzul kuchayib, aholining turmushi ancha og‘irlashgan edi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: “Ul mahalda Eron viloyatida har mamlakatda bir jamoat bosh chiqarib, podshohlik qilur edilar. Chig‘atoy ulusi va Jo‘ji ulusini o‘z gumashtalarining tasarrufi ostiga olganidan so‘ng muborak xotirig‘a tushtikim, Eron viloyatini zabt qilg‘ay, Eron sari mutavajjih bo‘ldi”⁵.

Demak, Amir Temur parchalanib ketgan va o‘zaro urushlar girdobida qolgan Erondagi kichik davlatlarni birlashtirish orqali (aslida Hulagu taxtini qayta egallash) markazlashgan

¹ Davlatshoh Samarqandiy. Shoirilar bo‘stoni. T., 1981, B. 118.

² Yazdiy. Zafarnoma. – B. 81, 86; Tilman Nagel. Timur – zavoyevatel. – S. 192-193.

³ Temur tuzuklari. – B. 35.

⁴ Nizomiddin Shomiy. – B. 112.

⁵ Sharafiddin Ali Yazdiy. – B. 88.

mamlakat hududlarini kengaytirishni rejalashtirgan. Bu o'rinda ham Movarounnahrğa janubdan yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish asosiy o'rinda turgan. Mazkur siyosiy tadbir amalga oshgandan keyin bu yerlarda ham adolat va osoyishtalik o'rnatish, hokimiyatni suiiste'mol qilish hollari va o'zaro qirg'inlarga chek qo'yish ko'zda tutilgan. Bu maqsadga erishish orqali islom qoidalarini mustahkamlash asosiy niyat qilib olingan.

Shu o'rinda yana bir qator muhim siyosiy-ijtimoiy sabablar mavjudligini ham aytib o'tish kerak:

1. Hulagu saltanati parchalanib, kichik davlatchalarga bo'linib ketgach, ikki qudratli davlat – Misr mamluklari va Oltin O'rda xonligi bu hududlarga ko'z tika boshlagan edi. Arab manbalarida qayd etilishicha, sulton Beybars va Berkaxon o'rtasida bu xususda bitim tuzilib, ikki yuz yil orasida Qohira bilan Saroy Berka orasida besh yuz martaga yaqin elchilik aloqalari bo'lib o'tgan edi¹. Misr bo'lajak muhorabalarda Suriya (Shom)ni, Oltin O'rda Ozarbayjonni istehkom qilishni mo'ljallagan, g'alabadan keyin Hulagu saltanatini o'zaro bo'lishib olish rejalashtirilgan edi. Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan paytda ham ana shu yashirin siyosiy reja kun tartibida turardi. Agar bu reja amalga oshib, Yaqin va O'rta Sharq mamluklar va Oltin O'rda tasarrufiga o'tsa, Movarounnahr kuchli tahlika ostida qolishi muqarrar edi. Sohibqiron tomonidan taxtga o'tkazilgan g'ayratli To'xtamishxon bu siyosiy kurashga faol aralashib, tez orada xavfli raqibga aylandi. U qisqa fursatda Oq O'rda va Ko'k O'rdani birlashtirib, kuchli hukmdor bo'lib olgach (1376-yil), Amir Temurni pisand qilmay qo'ydi. Jo'ji ulusiga tobe bo'lgan Xorazmning qo'ldan ketishi unga aslo tinchlik bermas edi. U mazkur hududni qaytarib olishga o'zligini anglab, asosiy kuchlarini Kavkazga to'plab, Darband darasini harbiy qarorgohga aylantirdi va Janubiy Ozarbayjonni qo'lga kiritishni mo'ljalladi. Arab muarrix Ibn Tag'riberdining yozishicha, To'xtamish yuborgan elchi 1384-yil 26-martda Qohiraga yetib keladi va izzat-ikrom bilan kutib olinadi². Ayni shu kunlarda turk sultoni Yildirim Boyazid va Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmad yuborgan elchilar ham Qohiraga kelgan edi. Ibn Tag'riberdining yozishicha, Misr sultoni To'xtamishxon, Yildirim Boyazid va Qozi Burhoniddinning Amir Temurga qarshi Ittifoq tuzish haqidagi taklifiga qo'shiladi³. Arab tadqiqotchisi Said Abdulfotih Ashur "Mamluklar hukmronligi davrida Misr va Shom" asarida bu xususda shunday yozadi: "Turkiy davlatlarning mamluklar saltanatiga tahdidi 15-asrda kuchaydi. Ayni shu paytlarda Mamluklar davlati ichida notinchlik va fitnalar ko'paygan, bu davlatning zaifligi ko'rinib qolgan va o'zini mudofaa etishga o'zligi namoyon bo'lib qolgan edi. Ushbu tashqi xatar asosan Temurlang tomonidan tug'ilmoqda edi"⁴. Bu haqda yana Ibn al-Frotning "Tarix ad-duval va al-muluk" asarida ham ma'lumotlar berilgan. Jumladan, u To'xtamishxon Amir Temurga qarshi "Mudofaa ittifoqi" tuzish istagini bildirib, Sulton Barquq huzuriga elchilarini yuborgani, Sulton Boyazid yuborgan elchilar turk sultoni ham Amir Temurga qarshi jangda ittifoqdosh bo'lishga rozi bo'lib, Misr sultoni ixtiyoriga ikki yuz ming askar yuborishga tayyor ekanini bildirgani haqida yozadi⁵. Shuningdek, Al Maqriziy "Kitab as-suluk fi ma'rifat duval al-muluk" asarida ham bu masalani batafsil yoritgan⁶.

¹ Амин ал-Холи. Связи между Нилом и Волгой. М., 1962, С.15.

² ابن تنگربردی. النجوم الظاهرة فی ملوک مصر والقاهرة. القاهرة، ۱۹۵۶، جزء-۱۲، ص-۲۲۳.

³ ابن تنگربردی. النجوم الظاهرة فی ملوک مصر والقاهرة. القاهرة، ۱۹۵۶، جزء-۱۲، ص-۲۲۳.

⁴ سعد عبد الفتاح عشور. العصر المملکی فی مصر و الشام. القاهرة، ۱۹۶۵، ص-۲۵۲.

⁵ ابن الفرات. تاریخ ابن الفرت. بیروت. جزء-۹، ص-۳۸۲.

⁶ المقرزی. "کتاب السلوک فی معرفة دول الملوک". القاهرة، ۱۹۵۸-۱۹۳۴، جزء-۳، ص-۴۹۵.



Turk olimi Ismoil aka bu haqda shunday yozadi: “Ayni choqda Qozi Burhoniddin (Qaysari–Sivas hukmdori) Temurga qarshi bir jabha qurishga kirishgandi... Uning bu tahlikali harakati tez orada o‘z mevasini berib, Qozi Burhoniddin, Boyazid, Barquq, To‘xtamish o‘rtasida bir ittifoq yaratildi”.

Mazkur masala o‘zbek sharqshunosi Sanjar G‘ulomovning “Amir Temur va Boyazid munosabatlari” maqolasida ham keng yoritilgan¹. Ayniqsa muallif tahlil doirasiga kiritgan eron olimi Abdulhusayn Navoiyning “Asnod va makotiboti tarixi Eron (az Teymur to shoh Ismoil)” kitobi hamda “Usmoniylar yozishmalari” to‘plamidan olingan qaydlar diqqatga sazovor.

Amir Temur mohir sarkarda va dono davlat arbobi sifatida mazkur muxolif siyosiy kuchlar birlashib ketsa, o‘z saltanati qanchalik katta tahlika ostida qolishini yaxshi anglab yetdi. Bu siyosiy omil sobiq Hulagu taxtini o‘z nazorati ostiga olishni taqozo qilardi.

2. Yaqin Sharq mamlakatlari muqaddas Haj safari va Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega edi. Ayni shu yillarda bu hududlarda hokimiyat izdan chiqib, karvon yo‘llarida qaroqchilik avj olib, savdogarlar va ziyoratchilarga katta ziyon-zahmat yetkazmoqda edi. Shuningdek, g‘ayridinlar (jumladan gruzinlar)ning musulmonlar ustiga bosqinchilik yurishlari tez-tez sodir bo‘lib turardi. Ayniqsa, Qoraqo‘yunli Qora Yusuf turkman hukmronlik qilayotgan hududlarda bu illat juda kuchaygandi. Mazkur yerlardagi aholi o‘z hukmdorlaridan norozilik bildirib, Sohibqironidan madad so‘rab tinimsiz murojaat qilishar ediki, Amir Temur bu da‘vatlarni oqibatsiz qoldirishni xohlamas edi. Bu haqda “Temur tuzuklari”da shunday ma‘lumot bor: “...mendani qochib qaysar (Yildirim Boyazid nazarda tutilmoqda) panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig‘iga aylanib, ayniqsa ikki muqaddas shahar (ya‘ni Makkai mukarrama va Madinai munavvara) ziyoratiga qatnovchilarning karvonlariga ko‘p zarar keltirayotganligi xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o‘sha taraflardan bir jamoat kishilar kelib, ular ham Qora Yusufning jabr-zulmidan arz qildilar. Shuning uchun Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko‘zini g‘aflat uyqusidan ochib qo‘yishim lozim ko‘rindi”².

Muhim savdo yo‘lida joylashgan Tabriz va Bag‘dod hududlarini egallab olgan Qora Yusuf va Sulton Ahmad Jaloyirning Muqaddas Haj safariga chiqqan yo‘lovchilarga ziyon-zahmat yetkazishi, hozirgi atama bilan aytsak, jangarilik (terrorchilik) qilib, qaroqchilik bilan shug‘ullanishiga chek qo‘yish Sohibqiron siyosatining uzviy qismi hisoblanadi. Umuman, tiyiqsiz jangarilik, terrorizmga qarshi kurash hamma zamonda muhim ahamiyat kasb etgan. Jangarilar faoliyati hamisha tinch aholini chalg‘itib, osoyishta hayotni izdan chiqargan. Amir Temurning Yaqin Sharqdagi yo‘lto‘sarlariga qarshi kurashib, savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlashga intilishi katta ijobiy hodisa edi.

Sohibqironning Iroqqa nisbatan munosabatida ham adolat tamoyili ustuvorligini ko‘ramiz. Iroq aholisining muzaffariylar va boshqa turli toifadagi hukmdorlar zulmidan shikoyat qilib yozgan arizasi Sohibqiron uchun juda qo‘l keladi³. Shu o‘rinda yana quyidagi siyosiy vaziyatni ham ta‘kidlash kerak.

Eron va Yaqin Sharqda mo‘g‘ullar (Hulagu avlodlari) hukmronlik qilgan yillarda islom dinining mavqei ancha susayib qolgan edi. Xuddi shu holni Markaziy Osiyo sharqidagi jetalar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mo‘g‘ul xukmronlari o‘z manfaatlari yo‘lida islom qonun-

¹ S.G‘ulomov. Amir Temur va Boyazid munosabatlari. “Sharqshunoslik”, 7-son, 1996 y., B. 73-83.

² Temur tuzuklari. – B. 66.

³ Tuzuklar. – B. 56.

qoidalari bilan mutlaqo hisoblashmas edilar¹. Bu ahvol mo'g'ullardan keyingi hukmdorlar davrida ham ma'lum darajada davom etgan.

Movarounnahrda adolatli qonunlar tufayli mustahkam intizom o'rnatgan Amir Temur qo'shni davlatlarda islomning g'orat qilinishi va karvon yo'llarida oshkora talonchilik hukm surishiga aslo toqat qila olmasdi. Mana shu holatlar ham uning Eron va Yaqin Sharqqa yurishlariga jiddiy sabab bo'ldi. Shu tarzda Amir Temur islomni g'oyaviy bayroq sifatida o'zining boshqa davlatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlarida hamisha bedahl saqlashga, uni bosh masala tarzida har vaqt diqqat markazida tutishga qattiq e'tibor berib keldi. Bu hol Amir Temurning Yaqin va O'rta Sharq siyosatidagi asosiy g'oyaviy asos hisoblanadi.

Amir Temurning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga o'tlanishiga sabab bo'lgan navbatdagi muhim omil – karvon yo'llarini, ayniqsa, shu davrda rivoj topgan Buyuk ipak yo'lini o'z nazorati ostiga olish rejasi bilan izohlanadi. Hali kemasozlik va dengiz savdosi keng rivojlanmagan sharoitda bu karvon yo'li Sharq va G'arbni bog'laydigan asosiy aloqa vositasi bo'lib, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mavqega, demak, katta xalqaro ahamiyatga ega edi.

I.P. Petrushevskiy Amir Temurning harbiy yurishlari asosida “ma'lum iqtisodiy reja bor” deb to'g'ri ta'kidlaydi. Uning fikricha, Eron, Kavkazorti va Old Osiyo mamlakatlarining ishg'ol qilinishi ham aynan shu maqsadga bog'liq edi. Shimoldagi yo'llar (Qora dengiz bo'yi va Kaspiy bo'yi cho'llaridagi) ustidan Amir Temur o'zining doimiy hukmronligini o'rnatmay, balki “uni yopib qo'ymoqchi bo'ldi, shu maqsadda bu yo'llarda joylashgan yirik shaharlar – Urganch, Saroy Berka, Ashtarxon, Azov va boshqalarni yakson qildi”². Bu ongli tadbir natijasida Amir Temur muhim savdo karvonlari Movarounnahr hududidan, xususan, Samarqanddan o'tishiga va mamlakat iqtisodini rivojlantirishga to'la erishdi. Sohibqironning tashqi mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarini bir yoqlama baholab, faqat istilochilikka bog'lab qo'yish noto'g'ridir. Savdo-iqtisodiy aloqalari esa Movarounnahr aholisiga ham, boshqa qo'shni mamlakatlarga ham katta iqtisodiy naf keltirgan. Demak, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishga qaratilgan faoliyati katta xalqaro ahamiyat kasb etadi. Sohibqironning tashqi siyosati va harbiy faoliyatiga ana shu nuqtai nazardan yondashish to'g'ri bo'ladi.

Bu xususda A. Ziyo bildirgan quyidagi fikr ibratlidir: “To shu choqqacha Amir Temur yuritgan tashqi siyosat masalalariga baho berilganda, - deb yozadi u, - deyarli doim bir an'ana hukm surib kelgan, ya'ni Sohibqironning harbiy yurishlari faqatgina uning harbiy manfaati va saltanatparastlik rejalarini ro'yobga chiqarish yo'lida amalga oshirilgan. Go'yo uning butun faoliyati “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” yurishlardan iborat bo'lgan va butun umrini u shunga bag'ishlagan. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, Amir Temur hech qachon “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” yurish rejalarini qilmagan. Birinchidan, mazkur tushunchalarni Sharafiddin Ali Yazdiy taomilga kiritgan. Undan oldin qalam yuritgan Shomiy, Natanziy kabi tarixchilarning asarlarida bunday ta'riflar yo'q. Ikkinchidan, hatto ushbu ta'riflar shartli tarzda qabul qilinganda ham Sohibqiron muttasil va to'xtovsiz har kuni, har oyda urush bilan mashg'ul bo'lgan, degan xulosaga kelish noto'g'ri. Zero, odatda jang bir necha soat davom etadi. Qolgan vaqt unga tayyorgarlikka, bir manzildan ikkinchisiga ko'chishga sarf bo'lgan...”³. Bir so'z bilan

¹ Mannonov B. Amir Temur diplomatiyasi // «O'zbek diplomatiyasi tarixi» to'plami. – B. 66.

² Петрушевский И.П. Иран под властью Тимура и тимуридов. – В кн.: «История Ирана». – М., 1977. – С. 162.

³ Ziyo A. Ko'rsatilgan asar. – B. 223.



aytganda, Amir Temur davri davlatimiz ichki va tashqi siyosatini faqat jangu jadallarga bog'lab bayon qilish ham ilmiylikka, ham o'sha zamon tarixiy voqeligiga ziddir.

Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati, uning faoliyati o'rta asrlar geosiyosiy tizimida muvozanatni ta'minlash, xalqaro savdo yo'llarini tiklash va Markaziy Osiyoni siyosiy markazga aylantirishga qaratilgan murakkab strategik siyosat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Sohibqironning tashqi siyosiy faoliyati bevosita harbiy ekspansiya emas, balki iqtisodiy, diplomatik va madaniy barqarorlikni ta'minlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Amir Temur Yevropa va Sharq mamlakatlaridagi siyosiy parokandalikni chuqur tahlil qilib, o'z siyosiy rejasini shu asosda shakllantirgan. U o'z davrida global savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlashni asosiy maqsad deb bilgan va shu yo'nalishda xalqaro aloqalarni rivojlantirgan. Manbalarda keltirilganidek, Sohibqironning diplomatik faoliyati o'sha davr Yevropa davlatlari bilan bilvosita aloqalar o'rnatish, ularning siyosiy ahvolidan xabardor bo'lish hamda Markaziy Osiyo manfaatlariga mos ravishda strategik qarorlar qabul qilish bilan tavsiflanadi.

U Yaqin va O'rta Sharqda barqarorlikni tiklash, savdo yo'llarini, ayniqsa Buyuk Ipak yo'lini qayta jonlantirish hamda adolatli boshqaruv tamoyillarini o'rnatish orqali xalq farovonligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Sohibqironning diplomatik siyosati o'sha davrdagi Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy tarqoqlikdan oqilona foydalanish, ularning kuch nisbatini o'rganib, o'z manfaatlari yo'lida muvozanatni saqlashga asoslangan edi.

Shunday qilib, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati — bu o'rta asrlar diplomatiyasining yuksak namunasi bo'lib, u xalqaro munosabatlarda kuch va adolat muvozanatini yaratishga qaratilgan geosiyosiy konsepsiya sifatida baholanishi mumkin.



XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI SIYOSIY JARAYONLARNING TURKISTON DAVRIY MATBUOTIDA YORITILISHI

EGAMBERDIYEV ABDUVAHOB

Tadqiqotchi, TDSHU

***Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistondagi Britaniya mustamlakachilik siyosati, siyosiy beqarorlik va xalq noroziligining mahalliy hamda xalqaro matbuotda yoritilishi bo'yicha keng ko'lamlı manba tahliliga bag'ishlangan. Ishda 1880 – 1910-yillar oralig'ida ingliz, rus, german va hind tillarida chop etilgan gazeta-jurnal materiallari asosiy manba sifatida tanlangan. Maqolada "Turkestanskıe vedomosti", "The Times", "Peterburgskaya novosti", "Rossiya", "Modern Review", "Golos pravdy" singari nashrlar maqolalari tahlil qilinib, Britaniya ma'muriy islohotlarining demokratik emas, balki hukmronlikni mustahkamlashga qaratilganini ko'rsatadi. Chitral ekspeditsiyasi, harbiy-telegraf liniyasi qurilishi, "Buyuk o'yin"*